

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI
TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK INSTITUTI

Qo‘lyozma huquqida

UDK: 809.51-1

BBK: 81.2-5 (5 KIT)

P-25

Rasuleva Nigina Alisherovna

**XITOIY TILIDA TOPISHMOQLARNING SEMANTIK-
FUNKSIONAL TAHLILI**

5A 5120102 – Lingvistika

Magistr akademik darajasini olish uchun yozilgan
dissertatsiya

Ilmiy rahbar:

filologiya fanlari doktori, professor **Shomatov O.N.**

Toshkent– 2015

MUNDARIJA

Kirish.....	3
I bob. Topishmoq tushunchasining shakllanishi va rivojlanish bosqichlari.....	14
1.1 O‘zbek va dunyo tilshunosligida topishmoqlar semantikasining o‘rganilishi.....	16
1.2 Xitoy tilshunosligida topishmoqlar semantikasining o‘rganilishi.....	21
1- bob bo‘yicha xulosalar.....	26
II bob. Xitoy tilida topishmoqlarning mavzuiy semantik guruhlari va tuzilish xususiyatlari.....	29
2.1 Xitoy topishmoqlarining tematik tasnifi.....	29
2.2 Xitoy tilida topishmoqlarning struktur tuzilishi va modellari.....	33
2.3 Xitoy tili tizimida iyeroglifli topishmoqlarning o‘rmi.....	59
2- bob bo‘yicha xulosalar.....	64
III bob. Xitoy tili rivoyatli topishmoqlari ta’rifi va tahlili.....	67
3.1 Rivoyatli topishmoqlarning shakllanishi va taraqqiy etishi.....	67
3.2 Qisqa va rivoyatli topishmoqlarni funksional jihatdan o‘rganish va tahlil qilish.....	68
3.3 Xitoy tilini o‘rgatishda topishmoqlarning ta’siri va ularni o‘qitish usullari.....	79
3- bob bo‘yicha xulosalar.....	94
Xulosa.....	95
Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.....	99
Ilova	

KIRISH

Prezidentimiz I.A.Karimov ta'kidlaganlaridek Vatanimizning kelajagi, xalqimizning ertangi kuni, mamlakatimizning jahon hamjamiyatidagi obro'-e'tibori avvalambor farzandlarimizning unib-o'sib, ulg'ayib, qanday inson bo'lib hayotga kirib borishiga bog'liqdir. Biz bunday o'tkir haqiqatni hech qachon unutmashimiz kerak.¹

Yurtimizda iqtidorli yigit qizlar ko'p. Ular bilan suhbatlashish jarayonida dunyoqarashi kengligi, o'tkir nigohi, Vatanimiz taraqqiyotiga munosib hissa qo'shishga bo'lgan xoxish va intilishi kuchliligini ko'rib, qalbimizda o'zgacha g'urur hamda iftixor hislari jo'sh uradi. Sababi, istiqlol yillarida mamlakatimizda kelajagimiz vorislarining kamoli yo'lida beqiyos ishlar amalga oshirilayotgani, o'z navbatida, yoshlarning nafaqat bilim egallashi, balki xorijiy tillarni o'rganib mutaxassisliklari bo'yicha ishga joylashishida ham muhim omil bo'lmoqda.²

Gaplarimizning isboti sifatida shuni ta'kidlab o'tishimiz lozimki, kuni kecha ya'ni 2015-yilning 29-mart sanasida mamlakatimiz ijtimoiy-siyosiy hayotidagi muhim voqea-O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi milliy qonunchilik va umume'tirof etilgan qoidalar asosida yuksak uyushqoqlik bilan o'tkazildi. Prezident saylovi mamlakatimiz kelgusi taraqqiyotini, yurtimizda kechayotgan demokratik islohotlarni izchil davom ettirish hamda rivojlantirishning muhim omili ekanini chuqur anglagan fuqarolarimiz o'zlarining yuksak siyosiy saviyasi va Vatanimiz taqdiriga daxldorlik tuyg'usini namoyish etib, saylovda faol qatnashdi. O'zbekiston xalqi barqaror kelajagi uchun ovoz berdi.³

Aynan saylov kunlari dunyoning ko'plab davlatlaridan kelgan ekspertlar O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi bo'yicha saylov kompaniyasining borishini kuzatdilar. Xorijlik kuzatuvchilar-siyosatchilar, jamoat arboblari,

¹ Huquq va Burch.-T.; 2013.-4 son.26-b.

² Халқ сўзи.-Т.; 2015.-66 сон.

³ Халқ сўзи.-Т.; 2015.-63 сон.

olimlar, jurnalistlar ta'kidlaganidek, mamlakatimizda fuqarolarning siyosiy faolligi o'sgan, saylovlarga tayyorgarlik ko'rishda eng muhim demokratik prinsiplarga qat'iy rioya etilayotir.⁴

Xalqaro kuzatuvchilar mamlakatimizga amalga oshirgan o'z tashriflari mobaynida nafaqat saylovoldi tashfiqot ishlarini kuzatdilar, balki mamlakatimizning ijtimoiy, siyosiy, madaniy hayoti bilan ham yaqindan tanishdilar. Xususan, Xitoy Xalq Respublikasidan yurtimizga tashrif buyurgan xalqaro kuzatuvchilardan bir guruhi davlatimizda ta'lim-tarbiyaga berilayotgan e'tibordan mamnun bo'ldilar. Ular poytaxtimizdagi Jahon Iqtisodiyoti va diplomatiya Universitetida, O'zbekiston davlat Jahon tillari Universitetida bo'lib xitoy tilini o'rganayotgan talabalar bilan suhbat olib bordilar. Qolaversa, Toshkent shahrida xitoy tilini o'rgatish va o'rganish bo'yicha hozirgi kundagi eng na'munali litseylardan bo'lmish Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat instituti qoshidagi 2-sonli akademik litseyda ham bo'lib, dars jarayonini kuzatdilar va o'quvchilar bilan qizg'in suhbat olib borishdi, o'quvchilarni qiziqtirgan barcha savollarga javob berdilar, ularning qobilyatlariga, xitoy tilini o'zlashtirish darajasiga tan berdilar. Bularning barchasini ta'limga qaratilayotgan e'tibor maxsuli deb ta'kidlab o'tdilar.

O'zbekiston va Xitoy xalqlarini ko'p asrlar davomida do'stlik va o'zaro hurmatga asoslangan ko'p tomonlama aloqalar bir-biriga yaqinlashtirib kelgan. Xususan, bundan ikki ming yillar muqaddam Buyuk Ipak yo'li davrida boshlangan o'zaro madaniyatlar almashinuvi tarixining yorqin sahifalari hamon yodda saqlanib kelmoqda. Madaniyatlarimiz o'rtasidagi qadimiy yaqin aloqalar ildizi ikkala xalqning yanada yaqinlashishiga sabab bo'layotir va bugungi kunda O'zbekiston - Xitoy o'rtasidagi uzoq muddatli, muhim va ishonchli hamkorlik uchun qulay sharoit yaratmoqda.

Istiqbolli hamkorlik o'zaro manfaatdorlik, hurmat va ishonch tamoyillari asosida rivojlanyapti. Xitoy doimo O'zbekistonning taraqqiyot yo'lini qo'llab-

⁴ Халқ сўзи.-Т.; 2015.-59 соҳ.

quvvatlab kelgan. O'zbekiston muhim va dolzarb masalalarda Xitoy bilan hamfikir bo'lib, xususan, mamlakatning hududiy yaxlitlik borasidagi "Yagona Xitoy" tamoyilini qo'llab-quvvatlaydi.

XXR O'zbekiston Respublikasi Mustaqilligini 1991-yil 27-dekabrda tan olgan. 1992-yil 2-yanvarda diplomatik aloqalar o'rnatilgan.

Ikki tomonlama hamkorlik ko'lami barcha jabhalarni qamrab olgan. Bu munosabatlar zaminida mamlakat rahbarlari o'rtasida o'zaro ishonchli va do'stona rishtalar yotadi. Tomonlar shuningdek SHHT doirasida ham doimiy ravishda o'zaro oliy darajadagi uchrashuvlar va tashriflar amalga oshirib turishadi.

Shuningdek, ta'lim sohasidagi hamkorlik ham jadal sur'atda rivojlanib boryapti. O'zbekistonda yoshlar orasida xitoy tilini o'rganishga va Xitoyda turli sohalar bo'yicha ta'lim olishga bo'lgan qiziqish yil sayin ortib bormoqda.

Shu jumladan biz xitoyshunos talabalar ham aynan O'zbekiston va Xitoy aloqalarini yanada mustahkamlash ikki davlat o'rtasidagi siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy sohalardagi hamkorlikni kengaytirish yo'lida o'z hissamizni qo'shishimiz uchun o'qib izlanmoqdamiz. Ushbu magistrlik dissertatsiyasini ham aynan mazkur bilimlarimizning bir na'munasi sifatida ko'rsatishimiz mumkin.

Dissertatsiya mavzusining asoslanishi va dolzarbligi. Ma'lumki xalq og'zaki asarlarini avaylab-asrash, o'rganish va kelajak avlodlarga yetkazish davlat ahamiyatidagi ishdir. Chunki har bir xalq ota-bobolaridan qolgan bu muqaddas merosda bizdan avval o'tgan necha-necha avlodlarning beqiyos ma'naviy va madaniy boyliklari mujassamlashgan bo'lib, bu boyliklarsiz o'sha xalqning ma'naviy hayotini va uning rivojini tasavvur qilib bo'lmaydi.

Mazkur dissertatsiya, birinchidan, hozirgi zamonaviy xitoy tili topishmoqlarining semantik-funksional xususiyatlarini tadqiq qilishga, ikkinchidan, hozirgi xitoy tili topishmoqlarida so'zlarning va iyerogliflarning qo'llanishi, funksional ma'nolari, uslubiy xususiyatlaridagi o'ziga xosliklarni

aniqlashga bag'ishlangan. O'zbek xitoyshunosligi tomonidan xitoy tili topishmoqlari sohasiga oid ilmiy ishlar amalga oshirilmaganligi, xitoy xalq topishmoqlarining semantik tomondan tahlili bo'yicha maxsus ilmiy tadqiqot ishlari olib borilmaganligi, boshqa ilmiy ishlarda semantik-funksional tahlil kuzatilmaganligi ishning dolzarbligini belgilab beradi.

Xitoy tilining xususiyatlari O'zbekiston, MDH davlatlari, Yevropa va Amerika tilshunoslik ilmiy maktablari tomonidan ko'p yillardan beri chuqur va har tomonlama o'rganib kelinmoqda. Masalan, xitoy ta'lim vazirligining ma'lumotiga ko'ra hozirgi davrda jahonning 100 dan ziyod mamlakatlarida taxminan 30 mln.kishi xitoy tilini muntazam o'rganish, hamda tahlil etish bilan shug'ullanadi. Ammo hozirgi xitoy tilidagi topishmoqlarning semantik-funksional tahlili nainki O'zbekistonda balki, mashhur xitoyshunoslik ilmiy maktablariga ega bo'lgan Rossiya, AQSH, Germaniya, Angliya, Kanada va boshqa rivojlangan davlatlarda ham amalga oshirilmagan. Shuni ko'rsatib o'tish joizki, Xitoy ilmiy adabiyotida ham ushbu sohaga bag'ishlangan ilmiy asarlar sanoqli. Shu bilan birgalikda, Xalqaro tarjimonlar assosatsiyasining ilmiy jurnallarida topishmoqlarni tarjima qilishning ilmiy va amaliy asoslariga bag'ishlangan chiqishlar anchagina.

Xitoy bilan teng va o'zaro manfaatdorlikka asoslangan munosabatlarni taraqqiy ettirish zaminida albatta, xitoy tilini, xususan xalq og'zaki ijodi hisoblanmish xalq topishmoqlarini chuqur o'rganish, ularni amaliyotda qo'llash katta ahamiyat kasb etadi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, ushbu tadqiqot nafaqat lug'atshunoslik, xitoy tili tilshunosligi, va hattoki adabiyotshunoslik, matnshunoslik, folklorshunoslik sohasi uchun ham muhim ahamiyatga ega.

Tadqiqot obyekti va predmetining belgilanishi. Ma'lumki har bir fan va soha o'zining yo'nalishlariga ega. Topishmoqlar ham bundan istisno emas. Ishning obyekti sifatida hozirgi zamonaviy xitoy tilida mavjud bo'lgan topishmoqlar tanlab olindi. Mavzuning keng qamrovligini inobatga olgan holda

tadqiqot predmeti topishmoqlarning faqat semantik va funksional jihatdan o'rganish tahlili asosida belgilandi.

Tadqiqot maqsadi va vazifalari. Ilmiy ishda ko'zlangan maqsad, xitoy xalq topishmoqlarining semantik xususiyatlarini yoritish, topishmoqda so'zlarning qo'llanishi, funksional ma'nolari, uslubiy xususiyatlaridagi o'ziga xosliklarni aniqlashdir. Bundan tashqari muallif o'z oldiga tahlil yondashuvi asosida lozim bo'lgan tavsiyanomalar ishlab chiqish, ushbu mavzuning istiqbolli yo'nalishlarini aniqlash masalalarini ham qo'ygan.

Ilmiy ishda quyidagi asosiy vazifalar amalga oshirilishi nazarda tutilgan:

- 1) dunyo tilshunosligida xalq og'zaki ijodining aynan folklor yo'nalishi bo'lgan topishmoqlar ustida ilmiy taqdiqot ishlarini olib borgan tilshunos olimlar ishlarini ko'rib chiqish va ularning o'rganilganlik darajasini aniqlash;
- 2) xitoy tili topishmoqlarini semantik guruhlariga ajratish, ushbu guruhlariga xos bo'lgan topishmoqlarni yig'ish, funksional jihatdan tahlil qilish;
- 3) xitoy topishmoqlari leksikasini qo'llanish doirasiga ko'ra tahlil qilish;
- 4) xitoy tilida topishmoqlarning tuzilish usullari va qoidalarini o'rganib chiqish va bir-biridan farqlash;
- 5) topishmoqlar tili leksikasini semantik va tematik guruhlariga ajratish, mazkur guruhlarning qo'llanish xususiyatlarini, semantik va uslubiy qirralarini yoritish;
- 6) hozirgi xitoy tilida shakllanib, taraqqiy topayotgan rivoyatli topishmoqlarni o'rganish va uning tilshunoslikdagi o'rnini baholash;
- 7) topishmoqlarda uchraydigan sodda va murakkab iyerogliflarning semantik-stilistik xususiyatlarini o'rganish;
- 8) xitoy tilini o'rganayotgan o'quvchilarda xitoy tili topishmoqlariga bo'lgan munosobati va qiziqishini, qolaversa, o'qituvchi tomonidan dars jarayonida topishmoqlardan foydalangan xolda o'quvchilarga bilim berish usullarining foydali tomonlarini o'rganish;

Tadqiqotning ilmiy yangiligi. Xitoy xalq topishmoqlarining semantik-funksional xususiyatlari tekshirish obyekti sifatida birinchi marta maxsus o'rganilmoqda. Ishda xitoy topishmoqlari tilining o'ziga xos semantik xususiyatlari, so'zlarning qo'llanishi, funksional ma'nolaridagi o'ziga xosliklari: hozirgi xitoy adabiy tilida deyarli uchramaydigan so'z, so'z-formalarning mavjudligi; so'z formasi hamda iyerogliflarni o'zgartirib qo'llash; iyerogliflarning bir vaqtning o'zida ikkiyoqlama aloqador vaziyatda bo'lishi; ko'chma ma'noda qo'llangan so'z, ifodada to'g'ri, bosh, denotativ ma'noning faollashgan holda mavjud bo'lishi, buning natijasida ko'chma ma'noning sezilmay-bilinmay ketishi; oddiy topishmoqlar va rivoyatli topishmoqlarda iyerogliflarning turli ma'nolarda qo'llanilishi hamda ularning tarjimalarida kuzatiladigan grammatik holatlarni o'rganish; topishmoqda so'zlar va iyerogliflarning aniq va yashirin ma'no xususiyatiga ega bo'lishi kabi masalalar izohlab berildi.

Tadqiqotning asosiy masalalari va farazlari. Xitoy tilidagi topishmoqlarning semantik-funksional tahlilini olib borilishi natijasida xitoy tilida turli usullarda tuzilgan topishmoqlarning semantik jihatdan shakllanishi va uning tuzilish yo'llarini o'rganish tadqiqotning asosiy masalasi sifatida belgilandi. Folklor sohaning eng muhim yo'nalishlaridan biri bo'lgan topishmoqlarni semantik jihatdan o'rganish va ularning tilshunoslikdagi o'rnini aniqlash, sharqona mentalitetning tilning leksik boyligiga ta'sirini belgilashda asosiy omil sifatida gavdalanishi tadqiqotda ilmiy faraz darajasiga ko'tarildi.

Tadqiqot mavzusi bo'yicha adabiyotlar sharhi (tahlili). Mazkur tadqiqotni olib borishda xitoy, o'zbek, qozoq, ozarbayjon, rus, ingliz, hind va nemis tilshunosligi bo'yicha fundamental ishlar lingvistika, semantika, funksional sintaksis, generativ grammatika, kognitiv lingvistika nazariyasi, lingvostatistika, mental leksion, neolingvistika, lingvistik strukturalizm, deskriptiv lingvistika, grammatikaga bag'ishlangan ishlar, shuningdek adabiyotshunoslik xalq og'zaki ijodi masalalariga doir adabiyotlardan jumladan,

o'zbek tilshunos va adabiyotshunoslari J.X.Abdullayev⁵, A.Abdurahmonov⁶, T.Akromov⁷, A.Alimov⁸, T.Aliqulov⁹, B.Bafojev¹⁰, E.Begmatov¹¹, A.Ishayev¹², Sh.Rahmatullayev¹³, M.Sadriddinova¹⁴, M.Saitbayeva¹⁵, Z.Xusainova¹⁶, qozoq olimi J.Adambayeva¹⁷ rus tilshunosligi vakillari V.P.Anikin¹⁸, S.G.Lazutin¹⁹, Y.I.Levin²⁰, A.N.Jurinskiy²¹, M.A.Ribnikova²², V.V.Chernishov²³, F.A.Nadirshina²⁴ va boshqalarning ilmiy-nazariy qarashlariga tayanildi.

O'zbek va xitoy tillarida topishmoqlarning semantik-funksional tahliliga oid ishlar deyarli yo'q desa ham bo'ladi. Mavjud bo'lgan ishlarda esa topishmoqlarning tarixiy qatlamlari aniqlangan, ular leksikasiga ko'ra tahlil qilingan, til faktlari asosida ularning xususiyatlari asoslangan, topishmoqlarning alohida qatlam sifatida tarkib topishi izohlab berilgan va ularning tuzilishi o'rganilgan.

Masalan, o'zbek tilshunosi J.X.Abdullayevning 1994-yil Toshkent shahrida taqdim etilgan "O'zbek xalq topishmoqlarining leksik-semantik xususiyatlari" nomli avtoreferati topishmoqlarning hozirgi o'zbek va boshqa turkiy tillar materiallari asosida, bugungi ahvoli uning leksik, grammatik xususiyatlarini, ma'no doiralari yoritib berilgan.

⁵Абдуллаев Ж.Х.-Ўзбек халқ топишмоқларининг лексик-семантик хусусиятлари.-Т.,1994.

⁶Абдурахмонов А.-Ўзбек халқ оғзаки ижоди асарларининг синтактик хусусиятлари.-Т.,1971.

⁷Ақромов А.-Топишмоқларнинг баъзи синтактик хусусиятлари. Ўзбек тилининг лексик-грамматик хусусиятлари.-Т.,1976.

⁸Алимов А.- Каракалпакские народные загадки: Автореф.дисс.канд.филол.наук.-Нукус.,1965.

⁹Алиқулов А.-Сўз маъноларининг лексикографик тавсифи.-Т.,1990.

¹⁰Бафоев Б.-Кўхна сўзлар тарихи.-Т.,1991.

¹¹Бегматов Э.-Ҳозирги ўзбек адабий тилида лексик қатламлар.-Т.,1985.

¹²Ишаев А.-Халқ дostonлари лексикасидан.-Т.,1967.

¹³Раҳматуллаев Ш.-Ўзбек фразеологиясининг баъзи масалалари.-Т.,1966.

¹⁴Садриддинова М.-Лексические особенности узбекских народных загадок: Автореф.дисс.канд.филол.наук.-Т.,1984.

¹⁵Сайтбаева М.-Именное сказуемое в узбекских народных загадках.-Т.,1984.

¹⁶Хусайнова З.-Ўзбек топишмоқлари.-Т.,1966.

¹⁷Адамбаева Ж.- Литературно-стилистических и языковые особенности казахских загадок.-Алма-ата.,1966.

¹⁸Аникин В.П.-Вступительная статья.Загадки русского народа.-М.,1959.

¹⁹Лазутин С.Г.-Метафора в загадках.Поэтика русского фольклора.-М.,1994.

²⁰Левин Й.И.-Семантическая структура загадки.Паремииологический сборник.-М.,1978.

²¹Журинский А.Н.-Семантическая структура загадки.-М.,1989.

²²Рыбникова М.А.-Загадки.-М.,1932.

²³Чернышев В.В.-Синтаксис загадок.Автореф.дисс.канд.филол.наук.-М.,1989.

²⁴Надршина Ф.А.-Афористические жанры башкирского фольклора: Пословицы,загадки.Автореф.дисс.канд.наук.-Уфа.,1971.

Hindshunos olim O.N.Shomatovning “The Study of Riddles in Indo-Germanic Languages” (with special reference to Russian, Hindi and German) nomli maqolasi rus, hindiy va nemis tillarida mavjud bo‘lgan topishmoqlarning bir-biridan farqi, undagi ma’lum qoidalar, topishmoqlarning funksional jihatdan tartibi va tarkibi, uning yo‘nalishlariga asoslangan. Maqolada topishmoqlarni to‘plash, ularning dinamikasini, yasalish, shakllanish tarixi, yaratilish davridan tortib shu kungacha topishmoqlar tizimida sodir bo‘lgan fonetik o‘zgarishlarni ko‘rishimiz mumkin. Ilmiy tadqiqot ishida ushbu ilmiy maqoladan bevosita foydalanildi va xitoy tili topishmoqlari bilan o‘xshash va farqli jihatlari o‘rganildi va taqqoslandi.

Shuningdek, o‘zbek xitoyshunoslik maktabining vakillaridan biri bo‘lmish A.A.Karimov tomonidan yozilgan va hozirgi kunda nashrga tayyorlanayotgan “100 ta topishmoq. Xrestomatiya” to‘plami ham tadqiqot ishimizning asosiy qismini yoritib berishda, iyeroglifli topishmoqlarning tuzilish usullari va ularni tarjima qilish jarayonida tilshunoslikda mavjud bo‘lgan terminlardan to‘g‘ri foydalana olishda hamda topishmoqlarning javobini aniqlashda qaysi usullar samara berishi borasida muhim adabiyot vazifasini o‘tadi.

Tadqiqotga asosiy manba sifatida 2013-yil iyun oyida Sichuanda chop etilgan “谜语小百科” Mi yu xiao bai ke kitobi, 2014-yil iyun oyida Pekinda nashr qilingan 柳忠良 Liu Zhong Liangning “中华灯谜学” Zhong hua deng mi xue nomli asari tanlab olindi. Bu asarlarda Xitoy tarixida topishmoqlar paydo bo‘lgan davrdan boshlab uning shakllanish jarayonlari, rivojlanish bosqichlari, hamda tilshunoslikda hozirgi kundagi o‘rni bayon etilgan. Shuningdek, kartoteka to‘plash jarayonida 2012-yilning yanvar oyida nashrdan chiqqan “谜语故事” Mi yu gu shi, va 2014-yilning yanvar oyida nashr qilingan “谜语一本通” Mi yu yi ben tong to‘plamlaridan foydalanildi. Bu to‘plamlarda keltirilgan topishmoqlar semantik guruhlariga qarab tanlanib tarjima qilindi va tahlil qilindi.

Tadqiqotda qo‘llanilgan metodikaning tavsifi. Ishning maqsadi va vazifalaridan kelib chiqqan holda, quyidagi ish tuzilmasi ishlab chiqildi.

O'zbekistonning davlat tili haqidagi Qonun, mamlakat Prezidenti I.A.Karimovning milliy til va milliy madaniyatning rivojlanish yo'llari haqidagi yo'riqlari, shuningdek, sharq donishmand-mutafakkirlarining til haqidagi fikrlari va taniqli tilshunos, folklorshunoslarning tadqiqotlaridagi ilmiy qarashlari dissertatsiyani yozishda umumiy metodologik asos bo'ldi.

Tadqiqotda leksik-semantik, mavzuiy tahlil, semantik-stilistik tahlil kabi lingvistik va lingvostilistik metodlar hamda bayon qilish, tarjima qilish, tavsiflash, tasniflash kabi umumiy metodlardan foydalanildi. Shuningdek, ishda semantik va kommunikativ tahlil usullaridan foydalanildi. Tadqiqot leksikologik va funksional aspektda olib borildi. Ba'zi holatlarda, mavzuning interaktiv xususiyatlaridan kelib chiqib, tilshunoslikka oid bo'lgan umumiy metodlar ham qo'llanildi.

Tadqiqot natijalarining nazariy va amaliy ahamiyati. Ishda ilk marotaba xitoy tilidagi topishmoqlar tahliliy va tavsifiy, miqdoriy metodlar asosida o'rganildi. Xitoy tilidagi sodda va rivoyatli topishmoqlarning semantik jihatlari va guruhlari yoritib berildi. Ushbu tadqiqotda bayon qilingan bir qator ilmiy xulosalar xitoy tilining tarixiy leksikologiyasi, umuman, xitoy tili talqinida o'zbek xitoyshunosligining taraqqiy topishiga, xitoyshunoslikning turli tarkibiy qismlari-semantik-funksional guruhlarning o'ziga xos rivojlanish va boyish xususiyatlarini o'rganishda yordam berishi shubhasizdir.

Tadqiqotda xitoy xalq topishmoqlari tiliga oid boy material jamlangan va tahlil qilingan. Yangi xitoy tilidagi adabiyotlardan foydalangan holda topishmoqlar tarjima qilingan va ilovaga berilgan. Dissertatsiya materiallaridan umumiy tilshunoslik, leksikologiya, lug'atshunoslik, xitoy tili bo'yicha olib boriladigan kurslarda, tarjima amaliyoti fanida, o'quvchilarga xitoy yozuvi va o'qishni o'rgatish jarayonlarida, xalq og'zaki asarlarining lug'atini tayyorlashda ayniqsa xitoyshunos filologlar uchun o'quv qo'llanmalari tuzishda keng foydalanish mumkin.

Ish tuzilmasi. Dissertatsiya O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012-yil 24-iyuldagi PF-4456-son “Oliy malakali ilmiy va ilmiy pedagog kadrlar tayyorlash va attestatsiyadan o‘tkazish tizimini yanada takomillashtirish to‘g‘risida” gi Farmoniga (O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2012-yil, 30-son, 346- modda) va Vazirlar Mahkamasining 2007-yil 10-sentabrdagi 190-son “O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim tizimida magistratura faoliyatini yanada takomillashtirish, uning samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi qaroriga (O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2007-yil, 37-38 son, 384-modda) muvofiq O‘zbekiston Respublikasi Oliy va O‘rta maxsus ta’lim vazirining 2015-yil 2-mart 36-son buyrug‘i asosida magistratura to‘g‘risidagi Nizomda belgilangan dissertatsiya tarkibiy qismlarining barchasi qamrab olingan. Ya’ni titul varaq, ikki tildagi qisqacha annotatsiya, mundarija, kirish, uch bobdan iborat asosiy qism, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar va ilovadan tashkil topgan. Har bir bob o‘z mazmuni va mohiyatidan kelib chiqqan holda kichikroq qismlarga bo‘lingan. Bular: 1-bob. “Topishmoq tushunchasining shakllanishi va rivojlanish bosqichlari”. Bu bob o‘z navbatida ikki qismdan: “O‘zbek va dunyo tilshunosligida topishmoqlar semantikasining o‘rganilishi” hamda “Xitoy tilshunosligida topishmoqlar semantikasining o‘rganilishi” dan iboratdir. Shu bob bo‘yicha xulosalar mavjud. Imiy tadqiqotning 2-bobi “Xitoy tilida topishmoqlarning mavzuiy semantik guruhlari va tuzilish xususiyatlari” deb nomlanadi. Bu bob uch qismdan: 1. “Xitoy topishmoqlarining tematik tasnifi” 2. “Xitoy tilida topishmoqlarning struktur tuzilishi va modellari” 3. “Xitoy tili tizimida iyeroglifli topishmoqlarning o‘rni” dan iborat va tegishli xulosalar mavjuddir. 3-bob. “Xitoy tili rivoyatli topishmoqlari ta’rifi va tahlili” deb ataladi. Uch qismdan iborat. 1. “Rivoyatli topishmoqlarning shakllanishi va taraqqiy etishi” 2. “Qisqa va rivoyatli topishmoqlarni funksional jihatdan o‘rganish va tahlil qilish” 3. “Xitoy tilini o‘rgatishda topishmoqlarning ta’siri va ularni o‘qitish usullari”.

Dissertatsiyada tadqiqot natijalariga aloqador bo'lgan misollardan foydalanilgan.

Dissertatsiyaning umumiy hajmi 104 betdan tashkil topgan.

Tadqiqot jarayonida aynan mavzu yuzasidan 4 ta maqola nashr qilindi 2 tasi esa hozirgi kunda nashr jarayonida. Ular quyidagilar:

1. “O‘zbekistonda yaponshunoslik: filologiya, tarix, falsafa va iqtisod masalalari” mavzusida respublika oliy ta’lim muassasalariaro ilmiy-amaliy konferensiyada “Xitoy va yapon tillarida topishmoqlar tahliliga oid” nomli maqola.

2. O‘zMU ning 96 yilligiga bag‘ishlangan “Zamonaviy tilshunoslik va tarjimashunoslikning dolzarb masalalari” ilmiy maqolalar to‘plamida “Xitoy tilidagi topishmoqlarning leksik-semantik xususiyatlari” nomli maqola.

3. ToshDSHI Xitoyshunoslik fakultetining birinchi ilmiy-amaliy konferensiyasida “Xitoy topishmoqlarining tarixiy rivojlanish bosqichlari” nomli maqola.

4. O‘zMU Falsafa fakultetining “Psixik taraqqiyot va ta’lim muammolari” ilmiy maqolalar to‘plamida “Bolalar adabiyoti-tarbiya tayanchi” nomli maqolasi.

I BOB. TOPISHMOQ TUSHUNCHASINING SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISH BOSQICHLARI

Har qanday topishmoq jumboqqa to'la...

Uni yechishga intilgan shaxs yanada mukamallashadi.

J.R.Faulz

Asrlar davomida yaratilib, sayqal topib, mumtoz bir shaklga kelib qolgan xalq og'zaki ijodi asarlari bizning noyob ma'naviy va madaniy merosimiz, beqiyos ilmiy-tarixiy solnomamizdir. Xalq og'zaki ijodining umri boqiydir, u tildan-tilga, dildan-dilga o'taveradi, kelajak avlodlarni ham o'z go'zalliklaridan bahramand qilaveradi.

Xalq og'zaki ijodi nihoyatda rang-barang asarlarga boy, shu bilan birga, bu asarlarning har biri o'ziga xos maqsad va vazifaga ega bo'lgan mustaqil janr na'munalaridir.

Sirli nutq bilan topishmoq bir xil hodisa emas. Ular o'rtasida bir qator farqli jihatlar ham bor. Sirli nutq til hodisasidir. U xalq og'zaki ijodining biron janri sifatida mavjud emas. Topishmoq esa badiiy asar, adabiy janrdir. Sirli nutq monolog shaklida ham voqe bo'laveradi. Topishmoq kamida ikki kishi o'rtasida aytiladigan o'ziga xos dialogik birlikdan iboratdir. Sirli nutq javob talab qilmaydi va tinglovchini nazarda tutmaydi. Topishmoq savol sifatida tinglovchiga aytiladi va undan shu savolning javobini, nazarda tutilgan narsa-hodisaning nomini topib aytishni talab qiladi. Narsa va hodisalarni obrazli tasvirlash topishmoqning muhim xususiyatidir, sirli nutq buni alohida maqsad qilib qo'ymaydi, unda narsa hodisa boshqacha nomlanadi, shartli ravishda o'zgacha ataladi. Bundan maqsad topishmoqda shu obrazli tasvirga asos bo'lgan narsa-hodisalarni izlab toptirish asosida tinglovchining aqliy qobiliyatini sinash, unda mantiqiy va obrazli fikrlash, estetik didni rivojlantirish bo'lsa, sirli nutqda

so'zlovchining yoki so'zlovchilarning niyatini boshqacha atalayotgan narsa-hodisalarga sezdirib qo'ymaslik, ularni ruhini bezovta qilmaslik, ulardan kelishi mumkin bo'lgan yomonliklarning oldini olishdir. Sirli nutq qadimgi mifologik tasavvurlar, diniy tushunchalar bilan bog'liq. Shuning uchun fan-texnika rivojlangan bugungi kunda sirli nutq deyarli unutilgan yoki uning ayrim izlari ba'zi xalqlar tilida saqlanib qolgan, xolos. Xalq topishmoqlari doirasi esa yangilari bilan yanada boyib bormoqda.

Topishmoq sirli nutq obyektlariga ko'ra ham farqlanadi. Sirli nutqda misol uchun topishmoqning eng sevimli tasvir obyektlari bo'lgan odam a'zolarini boshqacha nomlashga extiyoj yo'q va hokazo.

Maqol va topishmoqlar o'z tasvir obyektlari, usullari, qonun-qoidalariga ega.

Tilning ijtimoiy potentsiali haqida gapiriladigan bo'lsa, bunda hoh yozma, hoh og'zaki bo'lsin, badiiy tilning roli kattadir. Badiiy asar tili, xususan xalq og'zaki ijodi asarlari tili tilning ma'lum funksional shakli sifatida tilshunoslikda muhim o'rin tutadi. Xalq og'zaki ijodi nutqi ko'p marotaba tadqiqot obyekti sifatida tilshunoslar e'tiborini jalb qilgan.

Topishmoq xalqqa yaxshi tanish bo'lgan ba'zi narsa hodisalar belgi-xususiyatlarning she'riy yoki nasriy formadagi turg'unlashib qolgan, o'ziga hos, ixcham, obrazli-metaforik ifodasi sifatidagi savol va tinglovchi tomonidan topilishi lozim bo'lgan narsa-hodisaning nomini o'zida mujassamlashtirgan javob qismdan iborat dialog shaklida aytiladigan iboradir.

Topishmoq obyektlari xalqqa yaxshi tanish bo'lgan narsa-hodisalardir. Xalq o'zi bilmagan, ko'rmagan, ishlatmagan, tasavvur qilmagan narsa haqida topishmoq to'qimaydi. Topishmoq savol qismning o'zidan iborat emas. U kamida ikki kishi o'rtasida aytiladigan savol va javob qismdan iborat bo'lgan dialogik birlikdir. Shuningdek, barcha topishmoqlarning ham savol qismi topilishi lozim bo'lgan narsa hodisaning poetik ifodasi bo'lavermaydi yoki savol qismda javob qismning tipik belgi-xususiyati berilgan bo'lavermaydi. Unda yashirin denotatlarning umumiy miqdorigina aytilgan bo'lishi mumkin.

Topishmoqning o'ziga xos tabiati qadimdan tadqiqotchilarning diqqat markazida bo'lib kelgan. Arastuning bergan ta'rificha, topishmoq yaxshi tuzilgan metaforadir.²⁵

Haqiqatdan, topishmoqlarning ko'pchiligi metaforik matnlardan iborat. Lekin shunday xalq topishmoqlari ham borki, ularda metafora kuzatilmaydi.

Boshqa tadqiqotchilarning fikricha, topishmoqni odatda metafora shaklida ifodalangan mazmunder savol sifatida ta'riflash mumkin²⁶ yoki topishmoq bu moddiy²⁷ olamdagi narsalarning rang-barangligi va poetik go'zalligini ko'z o'ngimizda ochib berish maqsadida yaratilgan biron bir narsaning mazmunder poetik tasviri²⁸ topilishi lozim bo'lgan narsa-hodisaning boshqacha ifodasidir.²⁹

1.1 O'zbek va dunyo tilshunosligida topishmoqlar semantikasining o'rganilishi

O'zbek xalq topishmoqlarini to'plash bo'yicha dastlab O'rta Osiyoning Rossiya tomonidan bosib olinishi munosabati bilan bu yerlarga kelib qolgan rus missionerlari N.P.Ostroumov va V.Vasilyevlar shug'ullanishgan. Lekin ular topishmoqlarning nazariy talqiniga e'tibor berishmagan.

O'zbek xalq topishmoqlarini ilmiy asosda yozib olish, to'plash, nashr etish, o'rganish ishlari G'ozim Olim Yunusov, Abdulla Nosirov, Xodi Zarif, Ismoil Orifiy, Buyuk Karimov, Zubaida Husainova kabi folklorshunoslar tomonidan amalga oshirildi. Bulardan, Z.Husainova o'zbek xalq topishmoqlarini maxsus o'rganib, bu haqida monografiya e'lon qildi. Monografiya o'zbek xalq topishmoqlarini adabiy jihatdan o'rganishga bag'ishlangan. Bu ishda topishmoqlarning til xususiyatlari to'g'risida ayrim ma'lumotlarga berilgan, xolos.

²⁵Аристотел.-Поэтика”.-Т.,1981. 45-б

²⁶Соколов В.М.-Русский фольклор.-М.,1941.С-9

²⁷Абдурахмонов Х.-Ўзбек халқ оғзаки ижоди асарларининг синтактик хусусиятлари бўйича кузатишлар. -Т., 1964.

²⁸Охундова Г.И.-Лексика и ститаксис азербайджанских народных загадок.-Боку.,1986 .

²⁹ Русское народное поэтическое творчество. 1971 г .

Topishmoqlarning til xususiyatlarini, xususan, ularning sintaktik xususiyatlarini yaxshi o'rganmay, topishmoqlarning mazmunini, o'ziga xosligini tushunish qiyin. Chunki topishmoq xalq og'zaki ijodining boshqa janrlaridan keskin farqli holda tasvir obyektini yoki aytilmoqchi bo'lgan fikrni aniq-ravshan, tushunarli qilib emas, imkoni boricha mavhum qilib, yashirib, xiralashtirib, odatdagidan butunlay boshqacha qilib tasvirlashga intiladi.

O'zbek tilshunosligida xalq og'zaki ijodi asarlarining lisoniy xususiyatlarini o'rganish ishlari 50-yillardan boshlangan. Bu sohadagi ilk tadqiqotni Sh.Shoabdurahmonov "Ravshan" dostonining badiiy tili haqida olib bordi.³⁰

60-70 yillarga kelib bu mavzudagi ishlar ko'lami ancha kengaydi.³¹

Mustaqillik yillariga kelib xalq og'zaki ijodi asarlarini o'rganish xalqimizning ma'naviy qadriyatlarini tiklash borasidagi umumdavlat ishining uzviy bir qismiga aylandi, desak xato qilmaymiz. Bu boradagi keyingi ishlarda endi yangicha talqin va tahlillarni kuzatish mumkin.

Topishmoq xalq og'zaki ijodining eng qadimgi janrlaridan biridir. "Topishmoq jahon xalqlari ijodi, sivilizatsiya tarixida maqollar bilan bir davrda paydo bo'lgan qadimiy janr na'munalaridandir".³² Topishmoqlarning kelib chiqish tarixi tadqiqotchilarni ko'pdan qiziqtirib keladi. Jumladan, V.P.Anikin topishmoqlarning kelib chiqishini baliq ovlovchilar, chorvadorlarning sirli nutqi, tabu va boshqacha so'zlashlarda ko'radi".³³

Turkiy tillardagi topishmoqlarning til xususiyatlarini o'rgangan tadqiqotchilar ham sirli nutq va topishmoq o'rtasidagi bog'liqlik xususida so'z yuritadilar.³⁴

Tadqiqotchi J.Abdullayev ham topishmoq va sirli nutq bog'liqligi haqida fikr yurita turib, ularning aynan bir hodisa emasligini ta'kidlaydi. Uning fikricha, sirli nutq til hodisasidir, topishmoq esa badiiy asar, adabiy janrdir.

³⁰Шоабдурахмонов Ш.-Равшан дostonининг бadiий тили хақида: Автореф. кан. филол. наук.-Т., 1949.

³¹Абдурахмонов Х.-Ўзбек халқ оғзаки ижоди асарларининг синтактик хусусиятлари бўйича кузатишлар.-Т., 1964.

³²Тайлор Э.Н.- Первобытная культура.-М., 1989. С-644.

³³Аникин В.П.- Русские народные пословицы, поговорки, загадки и детский фольклор.-М., 1957.-С-56.

³⁴Надршина А.Ф.-Афористические жанры башкирского фольклора (пословицы, загадки).-Уфа., 1971.-С-13.

O'zbek tilshunosligida tilshunos olim J. Abdurahmonov topishmoqlarning ayrim til xususiyatlariga bag'ishlangan dastlabki fikrlarini, garchi maqollar bilan birga bo'lsa-da, boshlab berganligi e'tiborga loyiqdir.

Tadqiqotchi sintaktik masalalarni topishmoqning janr tabiati bilan bog'lab tekshiradi. Shuningdek, maqollarda atov gap, kesim va uning ifodalanishi, parselatsion birliklar, izohlovchi konstruksiyali gaplar, sintagmatik birliklar, gap bo'laklarining ifodalanishi kabi masalalar to'g'risida fikr yuritadi. Tadqiqotdan uning xalq topishmoqlarining ayrim leksik, morfologik xususiyatlari to'g'risidagi fikr-mulohazalari ham o'rin olgan. Jumladan, u topishmoqlarda gap bo'laklarining ifodalanishi bilan bog'liq quyidagi ma'lumotni keltiradi: "Topishmoqlarda topilishi lozim bo'lgan predmetning obrazini eslatadigan fonetik strukturaga ega bo'lgan atoqli otlar uchraydi.

"Atoqli otlar folklorda konkretlikdan holi so'zga aylanadi". Tadqiqotchi T. Akramov topishmoqlarning ayrim sintaktik xususiyatlari haqida fikr yuritadi"³⁵.

Tilshunos topishmoq gap qurilishida javob qismi ham topishmoq bilan yoki uning biror bo'lagi bilan mazmuniy va grammatik jihatdan bog'liq bo'lishi, javob qismining topishmoq-gapga logik-grammatik ega, qaratqich, ergash gap munosabatida bo'lishi kabi holatlarga to'xtaladi.

O'zbek xalq topishmoqlarida ot kesimning qo'llanishi haqidagi ishda topishmoqlarda ko'p qo'llanadigan ot kesimlar, ularning semantik-struktural tiplari, bu tiplarning qo'llanish darajasi, topishmoq tilida ot kesimlarning ifodalanish usullari, ularning adabiy tildagi ot kesimlardan ayrim farqli jihatlari to'g'risida batafsil fikr yuritiladi. "Topishmoqlar" to'plamidagi 2881 topishmoqdan 929 tasi asosi ot kesimdan tuzilganligi haqidagi fakti keltiradi.

Muallif 96% holatda ot kesimlar nol ko'rsatkichli bo'lishini ta'kidlaydi. Nol ko'rsatkichli kesimlarning ikki xil shakli topishmoqlar uchun xarakterli ekanligini ko'rsatadi: asosi "bor" va "yo'q" so'zlari bilan ifodalangan qurilmalar,

³⁵Акрамов Т.-Топишмоқларнинг баъзи синтактик хусусийатлари ҳақида. ТДПУ илмий мақолалар тплами.-Т.,1981.-86-90-б.

hamda asosi ot bilan ifodalangan qurilmalar. Ot asosli qurilmalarning uchta struktur-semantik ko'rinishini farqlaydi.

Tadqiqotchining fikricha, o'zbek topishmoqlarida implitsit nominatsiyaning asosan quyidagi usullari keng tarqalgan:

1. Jumboqlanayotgan denotat xususiyatlariga mos kelmaydigan, yot belgilarni aytish: Chopsa, chopilmas, bo'lsa bo'linmas. (Soya) kabi.
2. Denotatda unchalik muhim bo'lmagan ikkinchi darajali belgilarini aytish. Masalan, supurgi haqidagi topishmoqda uning tashqi ko'rinishiga ishora qilinadi, vaholanki, supurgining eng muhim belgisi uning vazifasida ko'rinadi.
3. Jumboqlanayotgan predmetni boshqa predmetga qiyoslash. Jumladan, oyni patirga, yerni gilamga o'xshatish kabi.

Topishmoqlar monografik planda o'rganilgan keyingi ish sifatida J.X.Abdullayevning nomzodlik dissertatsiyasini ko'rsatish mumkin. Muallif ishining birinchi bobida xalq topishmoqlarida qo'llanuvchi so'zlarni til tizimidagi o'rniga ko'ra leksikologiya mezonlari asosida tavsiflangan. Keng iste'moldagi so'zlarni topishmoq mundarijasida yashirin denotatning u yoki bu belgi xususiyati to'g'risida ma'lumot tashuvchi, yashirin denotat belgi xususiyatining obrazli ifodasi, shuningdek, topishmoqlardagina qo'llanuvchi so'zlar kabi guruhlariga ajratadi.

Turkologiyada 60-yillarning oxiri, 70-yillarning boshiga kelib ayrim turkiy xalqlar topishmoqlarining til xususiyatlari yuzasidan kuzatishlar, tadqiqot ishlari yuzaga kela boshladi. Jumladan, J.Adambayeva qozoq xalq topishmoqlarining til xususiyatlarini tadqiq qilgan. Muallif qozoq topishmoqlarini ikki guruhga ajratadi: sodda ya'ni predmet topishmoqlari va tortishuv topishmoqlari. Predmat topishmoqlariga o'z shakliga ko'ra qadimiy bo'lgan, tortishuv topishmoqlariga esa sodda topishmoqlar negizida keyinchalik yuzaga kelgan topishmoqlarni kiritadi.

J.Adambayevaning ta'kidlashicha, avloddan avlodga o'tib kelayotgan qadimiy topishmoqlar ko'pincha yengil ritm va rifmaga ega bo'lib, asosan, sodda gap shaklida bo'ladi. Insoniyat taraqqiyotining keyingi bosqichlarida yaratilgan topishmoqlar murakkablasha borgan, qo'shma gap shaklidagi topishmoqlar bunga misol bo'la oladi. Shuningdek, qadimiy topishmoqlar tilida eskirgan so'zlar, leksik-grammatik arxaizmlar, faqat topishmoqlardagina qo'llanadigan so'zlar, tortishuv topishmoqlarida esa arabcha, forsha so'zlar ko'p uchrashini ta'kidlaydi. Keyingi davrlarda yaratilgan yangi topishmoqlarda esa fan-texnika taraqqiyotini ifodalovchi neologizmlar qo'llanadi, fikr ko'pincha murakkab gap shaklida ifodalanadi.

Turkiy tillardagi topishmoqlarning til xususiyatlarini o'rgangan F.A.Nadrshina va Oxundova Gulshan Islom qizining kuzatishlari ham buni tasdiqlaydi.³⁶ Ularning fikricha, qadimgi sirli nutqda ishlatilgan shartli atamalar, tabular bilan topishmoq obrazlari o'rtasida hayron qolarli o'xshashlik yoki to'la moslik bor. Tadqiqotchi Oxundova Gulshan Islom qizining nomzodlik dissertatsiyasi ozarbayjon xalq topishmoqlarining til xususiyatlari to'g'risidagi muhim kuzatishdir. Dissertatsiya ozarbayjon xalq topishmoqlarining leksikasi va sintaksisini o'rganishga bag'ishlangan. Tadqiqotdagi kuzatishlar va fikr-mulohazalar boshqa turkiy xalqlar topishmoqlari leksikasi va sintaksisini tushunishga ham yordam beradi. Muallifning ko'rsatishicha, ozarbayjon xalq topishmoqlarining lug'at sostavi umumxalq so'zlashuv tiliga yaqinligi bilan xarakterlanadi. Tadqiqotda ta'kidlanishicha, ozarbayjon topishmoqlari sintaksisi ham umumxalq tili normalariga yaqin bo'lib, elliptik qurilmalar keng qo'llanilgan. Topishmoqda tilning nafaqat hozirgi ahvoli, shu bilan birga, til taraqqiyotining ancha avvalgi bosqichlari ham aks etgan.

Rus tilshunosligida XIII asrning ikkinchi yarmidan boshlaboq, og'zaki ijod nutqi biror grammatik hodisani asoslash uchun illyustrativ material sifatida

³⁶Охундова Г.И.-Лексика и синтаксис азербайджанских народных загадок.-Баку.,1986.

xizmat qila boshladi. Til faktlari haqidagi gipotezalar, ular semantikasi tarixi asosan folklor materiallar yordamida asoslangan.

Rus tilshunosligida xalq og'zaki ijodi asarlarining lisoniy xususiyatlarini o'rganishga bag'ishlangan bir qator ishlar mavjud. Jumladan,

A.P.Yevgenevaning doktorlik dissertatsiyasi rus xalq og'zaki poeziyasining til xususiyatlariga bag'ishlangan.³⁷

Xalq og'zaki ijodi janr xususiyatlariga ko'ra xilma-xildir. Rus tilshunosligida bu janrlarning til xususiyatlari, ayniqsa, sintaktik xususiyatlari ertaklar, maqollar, xalq qo'shiqlari doirasida tadqiq qilingan.³⁸

Shu o'rinda taniqli rus tilshunosi A.P.Yevgenyevaning quyidagi fikrlarini keltirish o'rinlidir: "Xalq og'zaki ijodi tilini o'rganish rus filologiyasining muhim vazifalaridan biridir. Juda ko'p masalalar uning yechilishiga bog'liq...Og'zaki poetik nutq bilan adabiy tilning turli taraqqiyot davrlardagi o'zaro munosabati va ta'siri masalasi ochib berilmasa, adabiy til tarixi yetarli aniqlik va to'lalilik kasb etmaydi. Tarixiy grammatika va tarixiy leksikologiya uchun og'zaki poetik asarlarning tili nihoyatda boy material bo'lib xizmat qiladi.

Rus tilshunosligida topishmoqlarning sintaktik xususiyatlari, xususan, ularning matn tuzilishi V.V.Chernishev tomonidan maxsus tadqiq qilingan. Ishda rus xalq topishmoqlarining shakliy va mazmuniy xususiyatlari haqida fikr yuritiladi. Tadqiqotchining fikricha, topishmoqni shakllantiruvchi asosiy sintaktik birlik-topishmoq matni 98% holatda sodda va qo'shma gaplarga to'g'ri keladi. Faqat 2% topishmoqlardagina javob qismi ikki yoki undan ortiq gaplar bilan ifodalanadi. Ingliz topishmoqlarining nominativ aspekti haqidagi ishda esa muallif topishmoq tarkibida nominativ funksiyani ifodalovchi mexanizm implikatsional va intensioanldan iborat bo'lishini ta'kidlaydi.

1.2 Xitoy tilshunosligida topishmoqlar semantikasining o'rganilishi

³⁷Евгенева А.П.-Очерки по языку русской устной поэзии в записях XVII-XV вв.-М.,1963.

³⁸Боровский В.И.-Синтаксис сказок.-М.,1981.

Qadim zamonlarda odamlarning bo'sh vaqtlari bo'lganda o'zaro suhbatlashardilar va qalblaridagi dardlarini bir – birlariga aytganlaridan so'ng ham topishmoqlar paydo bo'ldi.

Xitoyda topishmoqlarning kelib chiqishi, o'z-o'zidan insonlarning o'zaro so'zlashuvidan kelib chiqqan. ”吴越春秋“³⁹ Wúyuè chūnqiūa sariga binoan bir qo'shiqda : “断竹，续竹，飞土，逐穴“ Duàn zhú, xù zhú, fēi tǔ, zhú ròu. Bu sakkizta iyeroglif kesilgan bambukni bitta ipga bog'lab kamondan o'q uzib o'ldirish mumkinligini bildiradi degan ma'no keltirilgan.

Har bir xalqning o'z davlat tili bor. Shuningdek har bir xalqning ertaklari va topishmoqlari mavjud. Xitoy tilidagi topishmoqlar boshqa dunyoviy topishmoqlardan yozilishi va tahlili bo'yicha farq qiladi.

Topishmoq bu ilm – fanni o'rganadigan bir turi bo'lib, ular o'zining chuqur ma'noga ega nazariyasi va murakkab asosiga ega.

Topishmoqlar nazariyasi ya'ni ildizi uning amalda qo'llanilishiga bog'liq. Xitoyda topishmoqlarning kelib chiqishi juda uzoq davrni o'z ichiga oladi, taxminan 3500 mingdan ortiq yillik tarixga ega.

Har bir sohada yoki ilm-fanni o'rganishda aniq qolipga solingan o'rganish obyekti mavjud, asosan maxsus o'rganiladigan ilm-fan sohasida buni ko'rishimiz mumkin.矛盾论 Mádùn lùn “Qarama-qarshiliklar” asarida yozishicha: “Ilm-fanni o'rganishdagi farq, ilm fanda turli xil yutuqlar bo'lganidek, unda kamchiliklar ham mavjud bo'ladi”⁴⁰ deb ta'kidlab o'tgan. Shuningdek, “Agar siz bilmaydigan qarama-qarshiliklar uchrasa, biror-bir predmetning harakatidan yoki ko'rinishidan uning qanday predmet ekanligini aniqlash mumkin” deb yozilgan. Topishmoqlar insonlarning jamiyat hayotidagi, madaniyatidagi oldingi davrlardan qolgan boylik hisoblanadi, topishmoqlar madaniyatdagi boshqa xalq og'zaki ijodi na'munalaridan farq qiladi. Bizlar odatda insonlarni turli xil qatlamlarga bo'lamiz ya'ni boy va kambag'al oilalarga.

³⁹”吴越春秋“ – 春秋 Xun qiu davrida yozilgan asarlardan biri

⁴⁰柳忠良“中华灯谜学”。北京：学苑出版社。2014年

Topishmoqlarning aytilishi va yozilishi maxsus qolipga solingan bo'ldi, topishmoqlarni yozishda uning yozilish tartibiga e'tibor berilishi lozim. Qonun-qoidasi esa aniq va ravshan yaratilishi kerak. Agar kelajakda topishmoqlarni yozishni bir ilm turiga kiritsak, unda maxsus o'rganishni tahlil qilishimiz kerak, uning asosiy negizini aniqlab odatdagi yozilish qonunlarini topib, topishmoqlar yozilishini kelajakda rivojlantirishimiz lozim. Topishmoqlar xitoy xalqida ko'p uchraydigan adabiyotning bir mashhur turi bo'lib, topishmoqlar o'zining mustaqil tuzilishiga va ma'noviy yorqinligiga ega san'atning bir turi deyish ham mumkin. Topishmoqlar xitoy xalqi madaniyatining yorqin ma'noga va tuzilishiga ega bo'lgan san'ati hisoblanadi. Bunday nazariyani o'qib foydalanganda, topishmoqlarning teoriyasida asarning rivojlanishiga katta e'tibor beriladi. Ularning rivojlanishi maxsus ma'noga egaligi bilan ifodalanadi.

Topishmoqlar Sun va Min sulolalari davrida rivojlandi, aynan ana shu davrda ularning soni ortib bordi. Bu bir necha yuz yillar ichida topishmoqlarni o'rganish nazariyasini ikki davrga bo'lishga sababchi bo'ldi:

清末民国，谜理论萌芽时期 **Qīngmò mínguó, mí lìlùn méngyá shíqí**

Qing Mo davlati davrida topishmoqlarning o'rganilish davri.

XX asrning 10– yillaridan 30- yillarigacha bo'lgan davrda, topishmoqlarni o'rganish yuzaga keldi, topishmoqlar kitobidan tashqari topishmoqqa oid asarlar va topishmoq jamlanmalari yaratildi, yana bir necha topishmoqqa oid kitoblar, bir qancha maqolalar, topishmoqqa doir san'at asarlari yaratildi va ularga tanqidiy fikrlar ham bildirildi. Bu davrda topishmoqlarni o'rganish nazariyasining maqtovga sazovor tomonlari ko'rib chiqildi, turli xil kitoblar chop etildi. Topishmoqlarning asosiy tuzilishi murakkab bo'lib ko'p usuldagi turlari yaratildi. 1904-yilda 光绪三十年 Guāngxù sānshí nián (Haqiqiy kirish 30 yil) “棣萼室谈虎” Dì è shì tán hǔ (“Kaiks va yo'lbars suhbatlari”); 1908–yilda yana bir kitob “谜话” Mí huà

(“Topishmoq”) kitobi va bir nechta to‘plamlar nashr qilindi. 1917–yilda topishmoqlar bo‘yicha katta mutaxassis 张 Zhang “橐园春灯话” Tuó yuán chūn dēng huà (“Bahorda bog‘da taqillagan ovoz“) degan kitob nashr qildirdi. Topishmoqlarni o‘rganishda maxsus chop etilgan kitoblar: 1929–yilda kitoblar chop etilishi gullab yashnagan davr bo‘ldi. Masalan: “评注灯虎不辨类” Píngzhù dēng hǔ bù biàn lèi “Topishmoqqa yozilgan tanqidiy fikrlar” asari nashr qilindi. Uning bir qismini Budda dini yo‘nalishiga oid topishmoqlar tashkil qilardi. XX–asrda o‘ntalik topishmoq kitobi ham chop etildi. 张建候 Zhāng jiàn hòu ning maqtovgga sazovor kitobida epiloglar bor, unda tanqidiy fikrlar va maqtovgga sazovor jihatlar haqida ham ma‘lumotlar berilgan.

Topishmoqlarni o‘rganish tarixiga yana nazar tashlasak, 1928–yilda Xitoyning janubiy qismida “Topishmoqlar tarixi kitobi” chop etildi.

1930 – yilda Zhāng jiàn hòu 陈光 Chén guāng “Topishmoqlarni o‘rganish” kitobi xitoy tilida (“谜语研究” Míyǔ yánjiū) nashr qilindi, bu kitobni boshqa kitoblar bilan solishtirganda xitoy xalqining topishmoqlari aniqlovchi vazifasini bajarishini, tarixni rivojlantirishini, tuzilishida murakkab asos borligini, vazifasi ham aniq bayon etilganini ko‘rishimiz mumkin.

XX asrning 80- yillaridan ya‘ni 30 yildan ko‘proq vaqt ichida, Xitoyda reforma o‘zgargandan so‘ng, jamiyatda odamlarning fikrlashlari ham o‘zgardi, topishmoqlar tarixda to‘rtinchi marta katta rivojlanish bosqichini o‘z boshidan o‘tkazdi. Bir necha ming topishmoqlar kitobida katta miqdordagi topishmoqlar va topishmoq jamlangan to‘plamlar nashr qilindi, topishmoqlarni o‘rganish nazariyasi asosi qabul qilindi.

1986-yilda “中华灯谜研究” Zhōnghuá dēngmí yǔ yánjiū “Xitoycha topishmoqlarni o‘rganish” kitobi nashrdan chiqdi. Bu kitobda topishmoqlarning kelib chiqishi va rivojlanishi haqida, topishmoqlarning umumiy asosga egaligi haqida yozilgan, topishmoqlarni topa olish san‘ati

haqida ham ma'lumotlar keltirilgan. 1988–yilda “中华灯谜语鉴赏” Zhōnghuá dēngmí yǔ jiànshǎng (“Xitoy topishmoqlariga berilgan baho”) nomli kitob chop etildi. Unda topishmoqlarning tarixi, uning kelib chiqish asosi va topa olish sirlari ham keltirilgan.

